



Kuz keldi Nima qildi? so'rog'i, -di qo'shimchasi



1-topshiriq. O'qing. Matn mazmuniga mos savollar tuzing.

Kuz keldi. Bog'larda mevalar pishdi. Bog'bonlar terilgan mevalarni qutilarga joyladilar. Dehqonlar hosilni yig'ishga kirishdilar. Yig'ib olingan meva va sabzavotlar bozor rastalarini to'ldiradi.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Kuzda qanday ishlar qilinadi?
2. Kuzda qanday ob-havo kuzatiladi?
3. Kuzda qaysi meva va sabzavotlar pishib yetiladi?
4. Kuzda qaysi bayramlar nishonlanadi?
5. Kuz faslini nega mehnat fasli deymiz?



-di qo'shimchasi so'z o'zagiga qo'shilib, ish-harakatning o'tgan zamonda aniq bajarilganligini ifodalaydi. *Nima qildi?* so'rog'iga javob bo'ladi.

Masalan: *Yomg'ir yog'di. Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketdi.*

- Sen nima qil**ding**?
- Men kitob o'q**idim**.
- U ko'chada nima qil**di**?
- U ko'chada barglarni supur**di**.
- Siz nima qil**dingiz**?
- Biz bog'da olmalarni ter**dik**.
- Ular nima qilish**di**?
- Ular mehmonga borish**di**.



1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring. **-di** qo'shimchasining qo'llanilishiga e'tibor bering.

1. Bu ... (mening, bizning, sening) bog'imiz. 2. Bog'da mevali daraxtlar ... (ko'p, bor, kam). 3...., ..., ... (olma, chinor, nok, shaftoli) daraxtlari bor. 4. Bog'imizda ... (mevalar, olmalar) pishgan. 5. Kecha men ... (olcha, tut, olma) terdim. 6. Menga ... (olma, olcha, gilos) yoqadi. 7. Dadam uzumlarni ... (kesdi, uzdi, terdi). 8. Ularni qutiga ... (oldik, soldik, berdik).



2-mashq. Gaplarni davom ettiring.

1. Kuzda salqin bo'ladi va ... yog'adi.
2. Shirin mevalardan ... tayyorlanadi.
3. Dalalardan ... hosili yig'ib olinadi.
4. Biz sabzavotlardan ... tayyorlaymiz.



3-mashq. Rasmlarni so'z bilan ifodalab, gaplarni ko'chiring.

Kuz fasli kirib kelishi bilan tabiat o'zgaradi.  lar  larini to'ka boshlaydi.  va  larda ish qiziydi. Kuzda hosil

yig'ib olinadi. , , , , ,  kabi



va



lar

terib olinadi.

Bog'bonlar mevalarni  larga solib,



larga jo'natishadi.



Lug'atdagi so'zlarni yod oling. **-di** qo'shimchasi ishtirokida beshta gap tuzing.

